

Маълумотни ишончли манбалардан изланг — INON.UZ иш бошлади



Ishonchli manbalardan izlash

Ahli sunna va jamoa mazhabi asosida pok aqiyda va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib, amal qilish, islomiy ma'rifat taratish, salafi solih – ulug' muftahidlarga ergashish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini tarqatish.

Shu yerdan biror bir mavzuni qidiring...

Ishonchli saytlar ro'yhati:



20:30 / 04.07.2021 2110

Азиз юртдошлар!

Бугунги ахборот оламида хабарлар, маълумотлар шунчалик кўпайдики, киши қай бирини ўқишни ҳам билмай қолди. Уларнинг орасидан холис ҳаққонийсини топиш эса осон эмас. Айниқса, диний-маърифий йўналишда ҳушёр бўлиш керак, чунки медиамаконда ғаразли мақсадларда жойланган маълумотлар талайгина. Уларга алданиб қолмаслик учун нима қилиш керак? Маълумотларни ишончли манбалардан олиш керак.

Бугунги кунда интернетда диний билимлар олиш мумкин бўлган кўплаб сайт ва каналлар фаолият юритмоқда. Уларнинг барчаси ҳам ишончлими?

Мана шу масалага ойдинлик киритиш, фойдаланувчилар турли фитналарга алданмаслиги учун, ишончсиз, кераксиз манбаларга кириб овора бўлишларининг олдини олиш мақсадида Inon.uz қидирув сайти ишга туширилди.

Бу сайт орқали юртимизда диний-маърифий йўналишда фаолият олиб бораётган барча ишончли сайтларни тезда топиш ва керакли маълумотлардан бохабар бўлиш имкони бор.

Inon.uz - ишончли қидирув